



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00

2023 - yil 20 - yanvar

VII-47-14-5-74-K/23

Nurota tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 25-noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Nurota tumanida 2022-2023-yillarda amalga oshirish yuzasidan “Yo‘l xaritasi”ning ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 25-noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Nurota tumanida 2022-2023-yillarda amalga oshirish yuzasidan tuman “Yo‘l xaritasi”, shuningdek, har bir sektor kesimida “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Bunda 5 ta tashabbus asosida aniq chora-tadbirlar belgilab olingan.

1-tashabbus - Elektr energiyasini tejash:

Bugungi kunga qadar Nurota tumanida faoliyat olib borayotgan maktablar, davlat tashkilotlari va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida quyosh agregatlari, quyosh panellari va ko‘cha yoritish chiroqlarini o‘rnatish keng joriy qilinmoqda.

Tasdiqlangan chora-tadbirlarga asosan tumandagi 24 ta tashkilot va korxonalariga umumiy quvvati 1155 kVt/soatni tashkil etuvchi quyosh panellarini o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, loyiha qiymati 12 705,0 million so‘mni tashkil etadi. Hozirgi kunda tumandagi 4 ta tashkilotda 85 kVt/soat quvvatdagi quyosh panellari o‘rnatildi.

Jumladan, tuman davlat soliq inspeksiyasiga 20 kVt/ soat, AT Agrobank tuman filialiga 30 kVt/soat, elektr tarmoqlari korxonasiga 5 kVt/soat hamda tuman IIB binosiga 30 kVt/soat quvvatdagi quyosh panellari o‘rnatilishi ta‘minlandi.

Bundan tashqari, tuman hokimligi binosiga 30 kVt/soat quvvatdagi quyosh panellari o‘rnatish bo‘yicha “SUN-HIGHTECH” MCHJ bilan umumiy qiymati 330 million so‘mlik shartnoma imzolangan bo‘lib, quyosh panellarini o‘rnatish ishlari olib borilmoqda.

2-tashabbus - “Yashil makon” dasturining Navoiy viloyati tajribasini yaratish va amalga oshirish:

O‘tgan 2022-yilning bahor mavsumida tuman hududida 517 mingta mevali, manzarali daraxt ko‘chatlari va qalamchalar, xususan 213,5 mingta ko‘chatlar tuman obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli ziyoratgoh va qabristonlar hamda tumandagi korxonalar tashkilot va muassasalar hududiga, 187,5 mingtasi mahalla fuqarolar yig‘inlarida, 22,1 mingtasi ijtimoiy soha (maktab, kasalxona, o‘quv yurtlari) obyektlari va tashkilotlar hududlarida hamda 93,8 mingta ko‘chatlar fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlik subyektlarining yer maydonlarida ekilishi belgilab olingan edi.

Ushbu maqsadlar uchun 2,1 milliard so‘mdan ortiq, korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda homiylar mablag‘lari, shu jumladan 160 million 990 ming so‘m tuman mahalliy byudjeti hisobidan mablag‘lar yo‘naltirildi.

Nurota tumani viloyatning o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan cho'l mintaqasida joylashgan hududlaridan biri bo'lib, havo haroratining nisbatan pastligini inobatga olgan holda ko'chat ekish ishlari uyushqoqlik bilan hududlarda "yashil yillik" loyihalari tashkil etilib bahor mavsumida 517,6 mingta manzarali va mevali daraxt ko'chatlari hamda qalamchalar ekilishi ta'minlanib rejaga nisbatan 101 % ga bajarildi.

3-tashabbus - Yaylovlarda echkichilik va qo'ychilikni keskin rivojlantirish:

Tumandagi "Vahobjon Rustamjon" fermer xo'jaligi tomonidan umumiy qiymati 12,0 milliard so'm bo'lgan (shundan, 11,0 milliard so'm o'z mablag'i va 1 milliard so'm bank krediti mablag'lari) "Chetdan 6 ming bosh naslli qo'y va echkilarni olib kelish" loyihasi shakllantirilib, tarmoq jadvali tasdiqlandi. Bugungi kunda ushbu fermer xo'jaligi tomonidan Agrobank Nurota tuman filialiga 1 milliard so'm bank krediti ajratish maqsadida hujjatlar rasmiylashtirilmoqda.

Bundan tashqari, tumanda qo'ychilikni rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 2 milliard so'm bo'lgan 3 ta loyiha tarmoq jadvali tasdiqlangan bo'lib, ushbu loyihalarni amalga oshirilishi natijasida 700 bosh mayda shoxli mollar sotib olinishi hamda 6 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi ta'minlanadi.

4-tashabbus - Infratuzilma obyektlari qurilishida resurslarni 30 foizgacha tejash:

Tuman prokuraturasi tomonidan tumandagi qurilish sohasidagi korrupsiyani oldini olish maqsadida boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, har bir loyihalar bo'yicha davlat xaridlari "Shaffof qurilish" MAT ning elektron tender platformasida o'tkazilishini ta'minlash, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish borasida ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, tuman prokurori rahbarligida sektorlar kesimida ishchi guruhlar tuzilgan bo'lib, mazkur ishchi guruh tomonidan bu borada olib borilayotgan ishlar ustidan doimiy monitoring yuritilmoqda.

5-tashabbus - Yoshlar muammolari bilan ishlash va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash:

Yoshlar muammolari bilan ishlash bo'yicha tuman hokimi rahbarligida sektor rahbarlari, davlat xavfsizlik xizmati tuman bo'limi boshlig'i, tuman hokimining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, tuman yoshlar ishlari agentligi hamda tuman tashkilot rahbarlaridan iborat tuman komissiyasi tashkil etildi.

Tuman hokimligi huzurida 4 ta sektor rahbari, tuman DXX boshlig'i, tuman hokimining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, tuman yoshlar ishlari agentligi va tuman korxon va tashkilotlaridan iborat tarkibda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bo'yicha yoshlar shtabi tashkil etilgan.

Shtab tomonidan hozirgi kunda xatlov jarayonlari yakunlangan.

Xatlov natijasida ishchi guruhlar tomonidan tuman hududida jami 21 714 nafar yoshlarga anketa so'rovnomalari to'ldirilib, shundan turli muammolari bo'yicha 261 nafar yoshlar "Yoshlar daftari"ga tavsiya etildi.

O'tgan 2022-yil davomida mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 450 ta tadbirlar o'tkazilib, 2700 nafar yoshlar qamrab olingan.

"Besh tashabbus olimpiadasi" 1-mavsumi doirasidagi tadbir va loyihalarda jami 16 ming 415 nafar yoshlar onlayn ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bitta mahalla kesimida o'rtacha 529 nafar, 2-mavsumi doirasidagi tadbir va loyihalarda jami 28 ming 707 nafar yoshlar qamrab olinib, tanlov va musobaqalarning Respublika bosqichida 19 ta kumush, 10 ta bronza medallari qo'lga kiritilgan;

"Bir nuroniyga o'n nafar yosh" loyihasi doirasida 62 nafar keksalarning ro'yxatlari shakllantirilib, ularga 310 nafar yoshlar birlashtirilgan;

5 nafar voyaga yetmagan shaxslar profilaktik hisobga olingan hamda Yosh oilalar o'rtasida 14

marotaba ajrim holatlari kuzatilgan;

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yoʻnalishida 7 ta loyiha va tadbirlar amalga oshirilib ularda 270 nafar yoshlar qamrab olingan;

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish yoʻnalishida 5 ta loyiha va tadbirlar amalga oshirilib, ularda 220 nafar yoshlar qamrab olingan boʻlsa, yoshlar oʻrtasida huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarni oldini olish yoʻnalishida 4 ta loyiha va tadbirlar amalga oshirilib ularda 155 nafar yoshlar qamrab olinishi taʼminlangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 25-noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Nurota tumanida 2022-2023-yillarda amalga oshirish yuzasidan “Yoʻl xaritasi”ning ijrosi toʻgʻrisida tuman hokimi A.Fayziyevning axboroti maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 25-noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Nurota tumanida 2022-2023-yillarda amalga oshirish yuzasidan tumanning “Yoʻl xaritasi”, shuningdek, har bir sektor kesimida “Yoʻl xarita”lar ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi;

5 ta tashabbus asosida aniq chora-tadbirlar belgilab olinganligi koʻrsatib oʻtilsin.

3. Tuman hokimi A.Fayziyev hamda tuman sektor rahbarlari (F.Norov, U.Abdurahmonov, O.Joʻraqulov)ga:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 25-noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Nurota tumanida 2022-2023-yillarda amalga oshirish yuzasidan “Yoʻl xaritasi”da belgilab olingan chora-tadbirlar ijrosini oʻz vaqtida va sifatli taʼminlash;

5 ta tashabbus boʻyicha belgilab berilgan topshiriqlarni bajarish vazifasi topshirilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 25-noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan tashabbuslar va belgilab berilgan vazifalarni Nurota tumanida 2022-2023-yillarda amalga oshirish yuzasidan “Yoʻl xaritasi”da belgilab olingan chora-tadbirlar ijrosini oʻz vaqtida va sifatli taʼminlanishini hamda 5 ta tashabbus boʻyicha belgilab berilgan topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan nazorat oʻrnatsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (L.Mansurov) hamda “Nurnoma” gazetasi tahririyati (L.Bozorov)ga “Yoʻl xarita” hamda 5 ta tashabbus boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Fayziyev